


2020 - yil yanvar-iyul oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **2814,7** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **99,2 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha bo`linadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda.



2020- yil 1-avgust holatiga ko'ra qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 3193 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 256 taga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **1,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **70,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **1,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,6 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **1,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **21,4 %**) o'sishidir.


Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda).

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.08.2019- yil	01.08.2020- yil	
Qashqadaryo viloyati	2937	3193	108,7
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	791	821	103,8
Shahrisabz	118	131	111,0
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	130	145	111,5
Dehqonobod	125	142	113,6
Qamashi	168	175	104,2
Qarshi	333	369	110,8
Koson	243	266	109,5
Kitob	122	128	104,9
Mirishkor	70	80	114,3
Muborak	179	187	104,5
Nishon	116	118	101,7
Kasbi	125	143	114,4
Chiroqchi	163	195	119,6
Shahrisabz	108	115	106,5
Yakkabog'	146	178	121,9



**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni
01.08.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi % da)**




Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh.(25,7%), Qarshi (11,6%) va Koson (8,3%) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **361,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **75,3 %** ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **44,0** punktga kamayib, **12,8%** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




■ 2019- yil yanvar-iyul ■ 2020- yil yanvar-iyul

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 24,2 % i yoki 2019- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 105,6 %), G'uzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 11,9 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,0% ga oshdi), va Qarshi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 9,5 % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,8%) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da.



Kichik korxona va mikrofirmalar


- 2019-yil yanvar-iyul
- 2020-yil yanvar-iyul

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,6 % i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan 14,8% punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ni tashkil etgan holda 1788,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 23,6% ni tashkil etib, 664,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 100,7 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **152,6** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2662,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,4 %** va **94,6 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da.

2020- yil yanvar-iyul



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyul oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur‘ati, % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Qashqadaryo viloyati	2814,7	99,2	100,0
<i>shaharlari:</i>			
Qarshi	681,8	105,6	24,2
Shahrisabz	152,4	101,2	5,4
<i>tumanlari:</i>			
G’uzor	334,2	101,0	11,9
Dehqonobod	66,7	100,1	2,4
Qamashi	87,1	92,2	3,1
Qarshi	267,8	101,8	9,5
Koson	247,2	84,3	8,8
Kitob	197,3	103,0	7
Mirishkor	68,2	96,2	2,4
Muborak	123	99,2	4,4
Nishon	112,5	100,0	4
Kasbi	77,4	89,5	2,7
Chiroqchi	209,8	99,7	7,5
Shahrisabz	73,8	101,8	2,6
Yakkabog‘	115,5	91,3	4,1

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda




Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar- iyul




74,9 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **74,9** % i yoki **2106,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



10,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **175,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **10,0%** ni tashkil etdi.



55,6%

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **978,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **55,6%** ni tashkil etdi.



34,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **605,3** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **34,4 %** ni tashkil etdi.




**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar- iyul oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Qashqadaryo viloyati	2814,7	99,2	1759,7
<i>shaharlari:</i>			
Qarshi	681,8	105,6	426,3
Shahrisabz	152,4	101,2	95,3
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	334,2	101,0	208,9
Dehqonobod	66,7	100,1	41,7
Qamashi	87,1	92,2	54,4
Qarshi	267,8	101,8	167,4
Koson	247,2	84,3	154,5
Kitob	197,3	103,0	123,3
Mirishkor	68,2	96,2	42,6
Muborak	123,0	99,2	76,9
Nishon	112,5	100,0	70,3
Kasbi	77,4	89,5	48,4
Chiroqchi	209,8	99,7	131,2
Shahrisabz	73,8	101,8	46,1
Yakkabog'	115,5	91,3	72,2

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da.

14,6**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari****2019- yil yanvar-iyul****12,7****Fuqarolik obyektlarini qurish****72,7****Binolar va inshootlarni qurish****11,4****Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari****13,7****Fuqarolik obyektlarini qurish****74,9****Binolar va inshootlarni qurish**

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar- iyul oylarida

Eng yuqori hajm (*mldr. so'm*)

Qarshi sh.
681,8

1

2

G'uzor
334,2

Qarshi
267,8

3



Kichik hajm (*mldr. so'm*)

Dehqonobod
66,7

1

2

Mirishkor
68,2

Shahrisabz
73,8

3





Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (75) 221-32-47